



## THE ROLE OF PRACTICAL TRAINING IN TEACHING STUDENTS TO LOGICAL THINKING

Samyayev Anvar Qodirovich,

She is a teacher at the Samarkand Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Educators

Ikromova Munisa Sheraliyevna

She is a teacher at the Samarkand Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Educators

### **Annotation:**

This article provides information on reforms in public education, traditional and non-traditional education, and the role of practical training in teaching students to think logically through cognitive learning. And examples are given.

**Keywords:** Reforms, traditional education, non-traditional education, cognitive learning, interactive methods, logical thinking, world time, local time, regional time.

Bugun mamlakatimizda ta’lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

Shunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

Eng muhimi, 2018 yil 12 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o‘rtasida Xalqaro talabalar bilimini baholash dasturida (Agreement for participation programme for international student assessment (PISA) 2021) ishtirok etish to‘g‘risida kelishuvga erishildi

Bugungi kunning asosiy talabi o‘quvchilarni kognitiv o‘qitish orqali mantiqiy fikrlashga o‘rgatishga qaratilgan. O‘quvchilarda tabiiy fanlar kesimida mantiqiy fikrlash laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarsiz shakllanmaydi. Geografiya darslarida o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatishda amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni katta. Quyida geografiya fanidan “Vaqt. Soat mintaqalari” mavzusi bilan bog‘lab amaliy mashg‘ulotlardan namunalar berdik .

### **VAQT, SOAT MINTAQALARI**

Vaqt o‘lchovidan xalqaro miqyosida foydalanishni osonlashtirish maqsadida mahalliy vaqt, mintaqqa vaqt va dunyo vaqt tushunchalari kiritilgan.

Yer o‘z o‘qi atrofida g‘arbdan sharqqa qarab bir kecha kunduzda bir marta aylanib chiqadi. Globusda bosh meridiandan boshlab har  $15^{\circ}$  dan meridianlar o‘tkazilsa, har bir meridian qo‘shni



meridiandan bir soat farq qiladi. Bosh meridianda tush payti bo'lganda,  $180^{\circ}$  uzunlikda yarim kecha, bosh meridiandan sharqdagi  $90^{\circ}$  uzunlikda ertalab bo'ladi.

Shimoliy va Janubiy qutbgacha bitta meridianda joylashgan nuqtalarda vaqt bir-xil bo'ladi, yani bitta meridianning hamma joyida vaqt bir xildir. Bu vaqt mahalliy vaqt deyiladi. Mahalliy vaqt o'lchovi quyidagicha aniqlanadi. Yerning shakli sharsimon bo'lib uning aylana yuzasi  $360^{\circ}$  ga teng. Yer o'z o'qi atrofida 23 soat 56 minut 4 soniyada to'liq aylanadi va biz uni yaxlitlab 24 soat deymiz. Yerning aylana yuzasini 24 soatga bo'lsak 15 chiqadi. Demak har  $15^{\circ}$  oralig'ida 1 soat farq bo'ladi. Soatdagi farq sharqga oshib borsa, g'arbg'a qarab kamayib boradi. Yuqoridagi ma'lumotdan ko'rilib turibdiki meridianlar orasida mahalliy vaqt farqi har bir gradus oralig'ida 4 minut bo'ladi.

Eslab qoling :  $15^{\circ} = 1$  soat yoki 60 minut.

$$1^{\circ} = 4 \text{ minut} .$$

1-Misol.  $69^{\circ}$  shq.u. da joylashgan Toshkent shahrida  $14^{20}$  bo'lgan bo'lsa,  $116^{\circ}$  shq.u da joylashgan Pekin shahrida soat necha bo'lganini toping.

Yechimi : Bunda biz birinchi navbatda shaharlar orasidagi meridianlardagi farqni topishimiz kerak. Agar berilgan shahar (Toshkent) va izlanayotgan shahar (Pekin) bir uzoqlikga joylashgan bo'lsa, katta uzoqlikdan kichik uzoqlik ayrıldi  $116^{\circ} - 69^{\circ} = 47^{\circ}$

Demak Toshkent bilan Pekin o'rtasida meridianlar orasidagi farq  $47^{\circ}$  ga teng. Soatdagi farq esa  $3^{\circ} 08'$  ga teng. Bunda  $47^{\circ}$  ni 4 ga ko'paytiramiz:

$47^{\circ} \cdot 4 = 188$  minut yoki 3 soat  $08$  minut. Pekin shahri Toshkentga nisbatan sharqda joylashgan va shu sababli soatdagi vaqt farqi Toshkentdag'i soatga qo'shiladi ;  $14^{20} + 3^{\circ} 08' = 17^{\circ} 28'$

Javob: Pekin shahrida soat  $17^{\circ} 28'$  bo'lgan ekan.

2-Misol :  $67^{\circ}$  shq.u. da joylashgan Samarqand shahrida  $13^{30}$  bo'lgan bo'lsa  $46^{\circ} g'.u$  da joylashgan San-Paula shahrida soat necha bo'lganini toping.

Yechimi : Agar berilgan shahar (Samarqand) va izlanayotgan shahar (San-Paula) ikki xil uzoqlikga joylashgan bo'lsa, uzoqliklar qo'shiladi

$$67^{\circ} + 46^{\circ} = 113^{\circ}$$

Demak Samarqand bilan San-Paula o'rtasida meridianlar orasidagi farq  $113^{\circ}$  ga teng. Soatdagi farq esa  $7^{\circ} 32'$  ga teng. Bunda  $113^{\circ}$  ni 4 ga ko'paytiramiz:  $113^{\circ} \cdot 4 = 452$  minut yoki 7 soat  $32$  minut. San-Paula shahri Samarqandga nisbatan g'arbda joylashgan va shu sababli soatdagi vaqt farqi Samarqanddag'i soatdan ayrıldi  $13^{30} - 7^{\circ} 32' = 5^{\circ} 58'$

Javob: San-Paula shahrida soat  $5^{\circ} 58'$  bo'lgan ekan.

Vaqt va soat mintaqalari mavzusi maktablarning 7-sinfida beriladi. Bugun sir emaski deyarli barcha oiladan kimdir o'qish, ishslash yoki xizmat safari bilan chet ellarda yuribdi. O'quvchilar aynan mana shu mavzu orqali yaqin kishilari yashayotgan joydagi vaqt va soatni biladi .